

Joriy yilning 6-noyabr kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining 1-bosqich talabalari uchun yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish omillari va shu kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan muhokama uchrashuvi tashkil etildi.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti hamda Toshkent shahar IIBB YHXB bilan hamkorlikda universitet 1-bosqich talabalari uchun “Barcha yo'l-transport hodisalarini, ayniqsa piyodalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarini oldini olish profilaktikasi oyligi” doirasida yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish omillari va shu kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan muhokama uchrashuvi tashkil etildi.

✓ Uchrashuv davomida Toshkent shahar IIBB YHXB Axborot xizmati boshlig'i podpolkovnik Q.P.Xudoyberganov tomonidan yo'l harakati qoidalariga oid ma'lumotlarni hamda talabalarni qiziqtirgan savollariga atroflicha javoblar berildi.

✓ Yakunda esa yo'l harakati qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelgan yo'l-transport hodisalarining oqibatlari to'g'risida ijtimoiy videorolik namoyish etildi.





www.turin.it

